

KO'CHADA XAVFSIZLIK



Ko'chada ehtiyot bo'lish juda muhimdir. Bunda bizga nafaqat ko'rish, balki eshitish sezgisi ham katta yordam beradi. Shuning uchun ko'chada yurganda telefonda gaplashish yoki video tomosha qilish mumkin emas.



Svetoorning qanday chiroqlari bor? Piyodalar qanday qoidalarga amal qilishlari kerak?



Svetoorning har bir chirog'i nimani anglatadi?





Rasmdagi qaysi piyoda yo'l harakati qoidalarini bilishini ayting. Rasmda nima noto'g'ri ko'rsatilgan?

MUHIM YO'L BELGILARI



Piyodalar o'tish joyi

Ushbu belgi piyoda yo'lni kesib o'tishi mumkin bo'lgan joylarga qo'yiladi. Shuningdek, bu joylarda yo'lga maxsus belgi – zebra chiziladi.



Yerosti o'tish yo'li

Bu belgi piyoda yo'lni yerosti yo'li orqali kesib o'tishi mumkin bo'lgan joylarga o'rnatiladi.



Piyodalar yo'lkasi

Ushbu belgi faqat piyodalar yurishiga ruxsat etiladigan yo'lkalarga o'rnatiladi.



Velosiped yo'li

Ushbu belgi velosiped yo'li yaqinida o'rnatiladi. Bu yo'llarda piyodalarning harakatlanishi taqiqlanadi.



Avtobus bekati

Bu belgi yo'lovchilar avtobusga chiqishlari yoki tushishlari mumkin bo'lgan joylarga qo'yiladi.